



**DIRIJYORLIKNI O'RGANISHNING DASTLABKI BOSQICHIDA  
YELKA ERKINLIGIGA ERISHISH YO'LLARI**

***Karabayev Abdumajid Nagimovich***

*O'zbekiston davlat konservatoriyasi*

*"Orkestr dirijyorligi" kafedrasi katta o'qituvchisi*

*email: kmnmc12@gmail.com*

**ANNOTATSIYA:** *Maqolada dirijyorlik san'ati va texnikasini o'rgatishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va bu muammolarning yechimi sifatida maxsus mashqlar va o'qitish metodlari tavsiya etiladi. Mashqlar va o'quv jarayonidagi metodologik yondashuvlar, dirijyorlikni o'rganishga kirishgan talabalar uchun samarali vosita sifatida taklif etiladi.*

**Kalit so'zlar:** *dirijyorlik, dirijyorlik apparati, orkestr, texnik ko'nikmalar, yelka erkinligi, mashqlar.*

**CONDUCTING STUDY IN THE INITIAL STAGES: WAYS TO  
ACHIEVE SHOULDER RELAXATION**

**Karabayev Abdumajid Nagimovich**

*Senior teacher of the Department of "Orchestra Conducting"*

*of the State Conservatory of Uzbekistan*

*email: kmnmc12@gmail.com*

**ANNOTATION:** *The article discusses the challenges encountered in teaching the art and technique of conducting and offers solutions to these problems through specialized exercises and teaching methods. The exercises and methodological approaches presented in the article are suggested as effective tools for students beginning their journey in conducting.*



**Keywords:** *conducting, conducting apparatus, orchestra, technical skills, shoulder relaxation, exercises.*

## **KIRISH**

O'zbekiston musiqa madaniyati kundan-kun rivoj topib kelayotgan sohadir. Bugungi kunda Respublika miqyosida musiqa san'atining deyarli barcha yo'nalishlari bo'yicha ta'lim berish yo'lga qo'yilgan. Bu xoh cholg'u ijrochiligi, xoh honandalik san'ati bo'lsin, ushbu yo'nalishlar bo'yicha professional pedagog kadrlar faoliyat olib, soha sir-asrorlarini kelajak avlodga yetkazishda tinimsiz mehnat qilmoqdalar.

Bugungi kunda O'zbekistonning qator oliy ta'lim muassasalarida musiqa sohasi bo'yicha bakalavr va magistrnlarni tayyorlash tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, ushbu ta'lim yo'nalishlarida o'qish uchun xujjat topshirayotgan yoshlar sonining yildan-yilga ortayotganligini ko'rib, sohaning kundan-kunga rivoj topayotganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Musiqa sohasi bo'yicha kadrlarni tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining cholg'u ijrochiligi yo'nalishlari o'quv rejasida dirijyorlik fani ixtisoslik fanlari qatoriga kiritilgan bo'lib, talabaning nafaqat 4 yillik o'qishi davomida, balki keyingi ish faoliyatida ham kerak bo'ladigan eng zarur bilim va ko'nikmalarni beradi. Dirijyorlik fanini o'rganish doirasida talaba dirijyorlik san'ati tarixi, dirijyorlik harakati qonuniyatlari, dirijyorlikda qo'llarning vazifalari, orkestrlar turlari, ularning tuzilishi, orkestr tarkibidagi cholg'ular haqida ma'lumotga ega bo'ladi shu bilan birga partitura ustida ishlash ko'nikmalarini o'rganadi.

Ushbu maqola doirasida dirijyorlik fanining oliy ta'lim muassasasida o'qitilishi, sohadagi mavjud muammolar va ularning yechimlarini O'zbekiston davlat konservatoriyasi misolida ko'rib chiqamiz.

O'zbekiston davlat konservatoriyasi musiqa sohasi bo'yicha ta'lim berishga ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim muassasasidir. Bu yerda dirijyorlik fani xalq cholg'ulari, torli cholg'ular, puflama va zarbli cholg'ular, bastakorlik va cholg'ulashtirish ta'lim yo'nalishlari talabalariga, shu bilan birga, alohida mutaxassislik sifatida tashkil etilgan "Opera-simfoniya dirijyorligi", "Harbiy (damli) orkestr dirijyorligi" hamda "Xalq cholg'ulari orkestri dirijyorligi" kabi ta'lim yo'nalishlari talabalariga o'tiladi. Maxsus



dirijyorlik yo'nalishlaridan farqli o'laroq, xalq cholg'ulari, torli cholg'ular hamda puflama va zarbli cholg'ular mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarning barchasi umumiy dirijyorlik fanini 1 yil o'tishadi, 2-semestr yakuniy nazorati natijalariga ko'ra talabalar ikkiga ajratiladi. Dirijyorlik qobiliyati mavjud bo'lgan, shu bilan birga dirijyorlik kasbiga qiziqqan talabalar ushbu fanni davom ettirishlari va 4-kursni tugatayotgan vaqtda, o'zining mutaxassislik imtixonidan tashqari, orkestr bilan birgalikda davlat imtixonini topshirib, dirijyorlik kvalifikatsiyasiga ikkinchi mutaxassislik sifatida ega bo'lishlari va keyinchalik joylarda dirijyorlik faoliyatini olib borishlari mumkin.

Ma'lumki, O'zbekiston davlat konservatoriyasi talabalari ushbu ta'lim muassasiga o'qishga qabul qilingunga qadar o'rta-maxsus musiqiy ta'lim muassasalari – ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at maktablarida (avvallari musiqa akademik litsey va kollejlarda) tahsil olib kelishadi. U yerda bo'lajak talaba umumiy musiqiy bilimlar qatorida dirijyorlik fanidan ham saboq oladi (faqatgina torli cholg'ular yo'nalishi bundan mustasno). Ushbu ta'lim muassasalarida o'quvchilarga dirijyorlikning eng dastlabki tushunchalari – dirijyorlik holati, oddiy chizmalarga dirijyorlik qilish o'rgatiladi. Konservatoriyaga o'qishga qabul qilingach esa, dirijyorlik fanini chuqurroq o'rganish jarayoni boshlanadi.

Ushbu jarayonning eng dastlabki bosqichida yuzaga keladigan birinchi muammo – bu dirijyorlik apparatining noto'g'ri qo'yilganligidir. Dirijyorlik apparatining to'g'ri qo'yilishi, qo'llarning erkinligi, gavda va bosh holatining to'g'riligi – dirijyorlikning asosi hisoblanadi. Ko'p hollarda o'rta-maxsus musiqa va san'at ta'lim muassasalari o'qituvchilari dirijyorlikni o'quvchiga o'rgatishda ushbu muhim jihatga jiddiy e'tibor qaratishmaydi va natijada konservatoriya talabasi o'z qo'llarini erkin boshqara olmaydi, shu bilan birga dirijyorlikning mazmun-mohiyatini anglashlari birmuncha kechikadi, chunki ulardagi mavjud muammolarni bartaraf etish yaxshigina vaqt talab etadi.

Dirijyorlik qilish paytida tana tik, xotirjam va shu bilan birga harakatga tayyor holatda ko'krak qafasi sal ko'tarilgan, yelka esa tik to'g'ri va erkin bo'lishi lozim. Tananing haddan ziyod harakatchanligi, ijro paytida tez-tez burilish, egilish va boshqa



ortiqcha holatlar shoshqaloqlikdek ko‘rinadi va odatda, dirijyorning texnik ko‘nikmalari yaxshi emasligini ko‘rsatadi. Dirijyor boshini shunday tutishi kerakki, bunda dahani sal tepaga ko‘tarilib, nigohi orkestrga qadalib turadi. Boshni to‘g‘ri va erkin tutib, uni kerak paytda orkestrning turli qismlari tomon burishga oson bo‘ladigan holatda ushlash lozim. Dirijyorlik paytida oyoqlar butun tana uchun mustahkam tayanch vazifasini bajaradi. Dirijyorning oyoqlari butun oyoq panjasi yoki barmoqlariga tayanib, tananing barqaror holatini ta‘minlaydi. Oyoqlarni juda kerib yuborish yoki bir-biriga juda yaqin qo‘yish ham noto‘g‘ri. Dirijor musiqaga hamohang tarzda tizzalarini bukishi, u yoq, bu yoqqa yurishi, yoki bir joyda qotib turgan holda tanasini chayqatishi ham to‘g‘ri emas<sup>1</sup>.

Dirijyorlikni o‘rgatishning dastlabki bosqichida o‘qituvchi aynan dirijyorlik apparatining to‘g‘ri qo‘yilishiga ahamiyat berishi kerak. Talabalarning ko‘pchiligida qo‘llarni yuqoriga ko‘targanda yelkani siqib olishi kuzatiladi. Dirijyorning harakati yelkadan boshlanishi kerak, shuning uchun yelkaning erkin holatda bo‘lishi o‘ta muhim jihat hisoblanadi. Yelkalarining erkinligiga erishish uchun yelkani orqaga aylantirish, qo‘llarni yuqoriga ko‘tarib, bittada keskin bo‘shashtirish va o‘sha vaqtdagi yelkaning holati eslab qolish, dirijyorlik vaqtida ushbu holatga erishishni nazorat qilishni talabaga o‘rgatish kerak. Qo‘llarni yuqoriga ko‘tarib, keyin keskin bo‘shashtirganda yelka qo‘lni boshqarmasligi kerak. Shunda pastga tushgan qo‘l bir necha marotaba tebranadi. Ba’zi talabalar ushbu mashqni qilish jarayonida qo‘lni pastga tushishi bilan to‘xtatib qolishga harakat qilishadi. Bu noto‘g‘ri ish. Ushbu mashqning ahamiyati shundan iboratki, talaba qo‘llarini keskin bo‘shashtirgach, ularni umuman boshqarmasligi kerak. Shundagina yelka va qo‘llar erkinligiga erishish mumkin.

Rossiya fanlar akademiyasining Markaziy Olimlar uyi qoshidagi A.P.Borodin nomidagi simfonik orkestr dirijyori L.N.Matalayev o‘zining "Dirijyorlik texnikasi asoslari" ("Основы дирижёрской техники") o‘quv qo‘llanmasida ushbu mashqning o‘zgacha turini taqdim etadi. Unga ko‘ra, ikkala qo‘l ham ko‘krak darajasida yuqoriga ko‘tariladi. Chap qo‘l bilagi o‘ng qo‘lni ushlab turadi. O‘ng qo‘l esa shu vaqtda

<sup>1</sup> Toshmatov E. Dirijyorlik. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent, 2008. 29-31-betlar.



maksimal darajada bo'sh qo'yiladi. Talaba bir vaqtning o'zida ikki qo'lidagi ikki xil holat – birining mushaklari siqilgan (chap qo'l), ikkinchisi esa mutlaqo bo'sh turganligini (o'ng qo'l) eslab qolish kerak. Shu holatda 5 soniyacha turiladi va to'satdan chap qo'l o'ng qo'lni qo'yib yuboradi. O'ng qo'l o'z og'irligi bilan pastga tushadi. Agar o'ng qo'l to'liq bo'sh qo'yilmagan bo'lsa, pastga tushish sun'iy chiqadi. Ushbu mashqni qo'llar to'liq erkinlikka erishmagunga qadar davom ettirish kerak<sup>2</sup>.

O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori M.V.Akmaljanova esa o'zining "O'zbek xalq cholg'ulari orkestri dirijyorligi san'ati" darsligida yelka erkinligiga erishish uchun quyidagicha mashqlarni keltirib o'tgan:

**1-mashq.** Tik turgan holda, ko'zingizni yumib, chuqur nafas oling, besh soniya nafasni ushlab turib, keyin chiqaring. Nafas chiqarish, nafas olishingizga nisbatan, ikki barobar uzoq davom etsin. Nafas chiqarganingizda butun tanangizni yerga tortilib ketayotgandek his etasiz. Shu holatni esda saqlang. Mashqni kamida 5-6 marotaba qaytaring.

**2-mashq.** Ikkala yelkani yuqoriga ko'tarib, siqiq holatni olamiz. Uch soniya ushlab turib, umuman tushirib yuboramiz. Hech qanday to'siqsiz bo'shatamiz. Yelka ko'tarilganda chuqur nafas olib, tushirganda davomiy nafas chiqaramiz. Shunda, siz yelka zo'riqqani va bo'shashganini his etasiz. Bu ikki holatni mushaklarimiz sezgi xotirasida eslab qolamiz<sup>3</sup>.

Yuqorida keltirilgan barcha mashqlarning asosiy maqsadi dirijyorlikni o'rganishni boshlagan talabalarda apparat erkinligiga erishishdir. Ushbu mashqlarni bajarish barcha talabalar uchun ham majburiy emas. Ba'zi talabalar tabiiy ravishda yelka erkinligiga ega, yohud oldin ta'lim olgan muassasasida ushbu muammo bartaraf etilgan. Bu talabalar bilan dirijyorlik texnikasini rivojlantirish ustida ish olib borish, uni rivojlantirishga doir mashq va vazifalarni bajarish maqsadga muvofiq.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Toshmatov E. Dirijorlik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent, 2008.

<sup>2</sup> Matalayev L.N. "Osnovy dirizhjorskoj tehniki" Metodicheskoe posobie. M.: Sovetskij kompozitor, 1986, 17-18-betlar.

<sup>3</sup> Akmaljanova M.V. "O'zbek xalq cholg'ulari orkestri dirijyorligi san'ati". Darslik. T.: "Fan ziyosi", 2022. 20-bet.



2. Matalayev L.N. "Osnovy dirizhjorskoj tehniki" Metodicheskoe posobie. M.: Sovetskij kompozitor, 1986.
3. Akmaljanova M.V. "O'zbek xalq cholg'ulari orkestri dirijyorligi san'ati". Darslik. T.: "Fan ziyosi", 2022.